“China Huanqiu Contracting & Engineering Co., Ltd” (HQC) kompaniyasi vakillari bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi

// 25.10.2024
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/china-huanqiu-contracting-engineering-co-ltd-hqc-kompaniyasi

Joriy yilning 21-oktabr kuni “O‘zkimyosanoat” AJ va Xitoyning “China Huanqiu Contracting & Engineering Co., Ltd” (HQC) kompaniyasi vakillarining uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Ma’lumot uchun: HQC China National Petroleum Corporation (CNPC)ning sho‘ba korxonasi bo‘lib, qurilish, texnologik jarayonlarni litsenziyalash, uskunalar ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, sanoat obyektlarini modernizatsiya qilish va moliyalashtirish bo‘yicha kompleks xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan.

Muzokarada tomonlar “Polivinilxlorid (PVX) va kaustik soda ishlab chiqarishni tashkil etish 2-bosqich”, “Ammiak va karbamid ishlab chiqarishni tashkil etish” va “Sirka kislotasi ishlab chiqarishni tashkil etish” kabi loyihalarni birgalikda amalga oshirish masalalarini muhokama qilishdi. Bundan tashqari, “O‘zkimyosanoat” AJ va HQC vakillari boshqa istiqbolli yo‘nalishlarda, jumladan, vinilatsetat, butandiol va boshqa talab yuqori bo‘lgan kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha hamkorlik imkoniyatlarini ko‘rib chiqdilar.

Uchrashuv yakunlari bo‘yicha tomonlar mazkur yo‘nalishdagi qo‘shma ishlarni amalga oshirish, loyihalarning texnik va iqtisodiy ko‘rsatkichlarini optimallashtirish, moliyalashtirish, shuningdek, “O‘zkimyosanoat” AJ texnik mutaxassislarining Xitoy hududidagi mavjud sanoat maydonlariga tashrifini tashkil etish masalalari bo‘yicha kelishib olishdi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati